



SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA O’XSHATISH SAN’ATI

Shodmonova Shohista Rauf-qizi
Guliston davlat universiteti
Adabiyotshunoslik yo’nalishi
2-bosqich magistri

shohistashodmonova3318@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13683194>

ARTICLE INFO

Received: 20th August 2024
Accepted: 22nd August 2024
Published: 29th August 2024

KEYWORDS

*traditsion fabula, tashbih,
tashbih turlari, badiiy tasvir
vositalari, poetik san’at, poetic
mahorat*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni badiiyati, shu jumladan shoirning tasvir mahorati o’xshatish san’ati misolida tahlil qilingan. asar badiiyati masalalarini tahlil qilish, birinchidan, asarning o’ziga xos tomonlarini yoritib bersa, ikkinchidan, dostonning mohiyati yaqqolroq ochilishiga xizmat qiladi.

Adabiy turlar orasida epik tur o’zining hajm ko’lami, sinkretizmi hamda poetik ifodasi bilan ajralib turadi. Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni traditsion fabula asosida qurilgan bo’lib, boshqa o’zbek mumtoz adabiyoti namunalari singari badiiy san’atlarga boy. Ushbu asarning aynan tasvir vositalarini o’rganish orqali romantik dostonning o’ziga xos xususiyatlarini aniqroq yoritish, Sayqaliyning ilmi bade’dan foydalanish mahoratini ham chuqurroq ochishga erishish mumkin bo’ladi. Zero, “Badiiy tasvir va ifoda vositalari muayyan badiiy-estetik maqsadni ko’zlab, til unsurlarini o’zgacha shakl, ma’no, tartibda qo’llash natijasida yuzaga keladi va voqelik tasvirining jonli, ta’sirchan bo’lishini ta’minlaydi”¹. Ulardan doston qahramonlari holatini, xarakteri, ichki kechinmalarini tasvirlash jarayonida foydalaniladi:

*Sharobi shavqidin mastona qilg’il
Muhabbat bahrini g’avvosi qilg’il (tanosub)*

*Shohi kishvar quvonib anda bisyor,
Sochib o’g’lin boshiga durri shahvor. (istiora)*

*Laziz monrezalar murg’on bir yon,
Latif ko’p mevalar erdi farovon. (epitet)²*

“Bahrom va Gulandom” dostonida yuqoridagi kabi tasvir vositalari orasida tashbih asosiy o’rinni egallagan. “Tashbih” arab tilidan olingan so’z bo’lib, “o’xshatish” degan ma’noni anglatadi. Mazkur san’atni yuzaga keltirish uchun shoir biror narsani ikkinchi bir narsaga o’xshatadi. «Tashbehdan maqsad: o’sha o’xshatilgan narsani aniqroq tasavvur etish; butun ta’sirchanligi bilan ko’z oldiga keltirish; o’xshatib suydurish va o’xshatib bezdirish; o’xshatib

¹A.Ulug’ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. -T., G’afur G’ulom, 2017

²Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. -T.: Fan, 1960. – 223 b.

maqdash va o'xshatib rasvoi jahon qilish » (V Rahmonov) ³. Deyarli barcha tasvir vositalari o'xshatish asosida paydo bo'lgan. Arastu o'zining "Axloqi kabir" asarida aytganidek, "Poetik san'atning kelib chiqishiga ochiq-oydin ikkita sabab bo'lib, ikkalasi ham tabiiydir. Birinchidan, taqlid, o'xshatish insonga bolalikdan xos bo'lgan xususiyatdir. Inson boshqa jonli mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farq qiladi, hatto, dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi"⁴Tashbehning xillari ko'p, ularining ba'zilar qo'yidagicha nomlanadi: tashbihi mutlaq, tashbehi kinoyat, tashbehi mashrut, tashbihi izmor, tashbihi musalsal va h.»⁵ bunday turlanish tashbehni yuzaga keltirayotgan unsurlarga, ularning qay darajada ishtirok etishi yoki etmasligi, o'xshatilayotgan narsaning qay darajada mos tushishiga bog'liq bo'ladi.

Tashbeh san'ati unsurlari to'rtta:

1. Mushabbih – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbihun bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shabih – mushabbih bilan mushabbihun bih orasidagi munosabat.
4. Vositayi tashbih – o'xshatish belgisi⁶.

Hamma juzvi mavjud bo'lgan o'xshatish "**tashbihi mufassal**" deb ataladi⁷. Ushbu baytni ham tashbihi mufassal deyish mumkin:

Shikasta shishadek ko'nglum sinig'dur,

Buzulgan kishidek jismim buzuqdur⁸

Bu yerda "ko'nglim" so'zi – mushabbih, "shishadek" so'zi – mushabbihun bih, "sinig'dur" so'zi – vajhi shabih, shishadek so'zi tarkibidagi "-dek" qo'shimchasi esa vositayi tashbih. Tashbihning barcha unsurlaridan foydalanish orqali Sayqaliy oshiqning ahvolini yaqqol ifodalashga urinadi. Ko'ngilning shishaga o'xshatilishi xalqimizda azaldan bor. Masalan, Navoiyning "Qizil, sorig', yashil..." radifli g'azalida ham:

Shishadek ko'nglimdadir gulzori husnung yodidin

Tobadoning aksidek alvon qizil, sorig', yashil...

baytida ko'ngilning nozikligi jihatidan shishaga qiyozlanganini ko'rishimiz mumkin. Sayqaliy ham "shikasta shishadek" deya qalbdagi og'riqlarning kuchini badiiy ifoda etmoqda.

Agar she'rda vajhi shaboh ishlatilmasa, "**tashbihi mujmal**" deyiladi:

To'lon oydek yuzingni ko'rgali aylab tamannosi,

Hiloli mag'ribidek ta'zimingga xam bo'lo keldim

"yuzingni" so'zi –mushabbih, "oydek" so'zi –mushabbihun bih, oydek so'zidagi "-dek" qo'shimchasi –vositayi tashbih.

Ko'rinib turganidek bu misrada yor yuzining nega to'lin oyga o'xshatilayotgani berilmay (hammaga ma'lum bo'lganligi uchun) o'xshatish sababisiz tashbeh paydo qilingan. Hilol – yangi chiqqan oy, g'arbda ekaniga ham urg'u berib o'tilgan. Bunda shoir yangi o'ning egik bo'lishi orqali oshiqning holati ham shu oydek egilib xam bo'lishga tayyor ekani ta'kidlanadi. Yorning go'zal jamoliga yetishishni istayotgan oshiqning tug'yonlarini mana shu tarzda ifodalash poeziyaning talablaridan biri hisoblanadi va shoir bu talabga javob bera olgan.

Mumtoz adabiyotda tashbehning, asosan, ham vajhi shabohsiz, ham vositayi tashbihsiz kelishi ko'plab kuzatiladi. Mushabbih va mushabbihun bihdangina tashkil topgan o'xshatish

³ A.Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. -T.,G'afur G'ulom, 2017

⁴ A.Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. -T.,G'afur G'ulom, 2017

⁵ H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b

⁶ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq,1998. B.14.

⁷ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq,1998. B.15.

⁸ Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. –T.: Fan, 1960. – 223 b.

esa “**tashbihi muqayyad**” deb ataladi⁹. Xususan, obyektidagi dostonda ham tashbihi muqayyad bisyor:

*Qadi sarv-u xol xand-u anbarin mo',
Yuzi gul, sochi sunbul, zulfi har so',
Qoshi yoy, kifriki o'q, g'amzasi cho'q,
Jahonda xublig'ig'a hech taraf yo'q.
Labi la'lu Badaxshon, tishlari dur,
Kulushi chaman pari, boqishlari hur.
Hama boshdan ayog'i nozi g'amza,
Suxan ustodidur har qaysi ramza*

Yuqoridagi baytlardagi o'xshatish belgisi tashbihi mufassalga qaraganda kuchliroq. Shu bois ko'pincha shoirlar o'xshatishning tashbihi muqayyad turiga ko'proq murojaat qiladilar. Bu tavsiflar Gulandom haqida yozilgan bo'lib, uning ta'rif dostonning bir necha o'rinlarida tasvirlanishiga qaramasdan bunday kengaytirilgan o'xshatishlar malikaning chiroyi to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitadi. Ayniqsa, “g'amzasi cho'q”, “boqishlari hur”, “kulushi chaman pari”, “suxan ustodidur” kabi birikmalar uning “kishvari husn ichra sarvar” ekanligidan dalolat beradi.

Dostonda keltirilgan g'azallarda ham o'xshatishning ohoriy misollarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, g'azallarni tashbehsiz tasavvur qilish mushkul.

Ey pari, shamshodi qaddi ximcha bo'yung sadqasi,

Mah bilan xurshid anvar moh ro'ying sadqasi.... Deb boshlanuvchi g'azalida “moh ro'yi”, “gul zulfi”, “anqos mo'yi” kabi o'xshatishlar asarning poetik jozibasini oshirishga xizmat qiladi.

“Bahrom va Gulandom”dagi baytlarda “tashbihi kinoya”, “tashbihi marshrut” kabi tashbih unsurlariga oid bo'lgan turlari bilan bir qatorda o'xshatish uchun tanlangan buyumlarning real yoki norealligiga ko'ra turlarini ham ko'rishimiz mumkin. Agar o'xshatilayotgan narsa hayotiy bo'lsa, “haqiqiy tashbeh”, agar xayoliy, mavhum bo'lsa, “majoziy tashbeh” deyiladi.¹⁰

Haqiqiy tashbeh:

*Mani rasvo qilankim turfa bir shakli shamoildur,
Qilichday qoshlari suratda bir xunrezi qotildur,
Kamandi zulfidin bo'ynumg'a chirmashg'on salosildur,
Aningchun telba ko'nglum azmgohi Ching'a moildur*

Banda qoshlari qilichga, zulfi salosil – zanjirlar shodasiga o'xshatilyapti. Har ikkala o'xshatilmish ham real narsalar.

Majoziy tashbeh:

Aydi shahzoda: - Ko'zum yoshi fidoyi maqdaming,
Mustajob etkoy xudovandim Masihoday daming.

Bu baytda shoir Bahrom tilidan Gulandomning nafasini – so'zlarini o'likni tiriltirish qudratiga ega Masihning nafasiga o'xshatar ekan, majoziy tashbihning go'zal ifodasini paydo qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Bahrom va Gulandom” haqida xalq og'zaki ijodida bir qancha folklorik namunalar mavjud bo'lib, Sayqaliy asari Bahrom sarguzashtlari, ko'rsatgan qahramonliklarini ifodalovchi epizodlar, xotima va yechim personajlarning asosiy voqea rivojidadagi ishtiroki mazkur asarlarda bir-biriga o'xshasa-da, ammo syujet rivojidadagi tafsilotlar, voqealarning asoslanishi, personajlarning xatti-harakati va nutqlarida, xarakterlarning shakllanishi va konkretlashuvida, timsollarning ichki dunyosini ochib berishda adabiy usullardan foydalanishda, tasvir uslubida bu dostonlar o'zaro ajralib turadi. Shu sababli ularning har biri alohida estetik qiymat va ta'sir etish kuchiga egadir¹¹. Biz ushbu maqolada

⁹ O'sha kitob. B.15.

^{10 10} Hojjahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq,1998. B.14.

¹¹ B. Jumanov. O'zbek adabiyotida Sobir Sayqaliy asarlarinig irfoniy tadqiqi.maqola. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2024

tasvir uslubining kichik bir qismi haqida fikr yuritdik, xolos. Asarda shoir ijodining yetakchi xususiyatlarini yoritib turuvchi unsurlar talaygina va ular hali yetarlicha o'rganilgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. -T.: Xazina, 1996. - 212 b.
2. Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. -T.: Adabiyot va san'at, 1981. - 400 b.
3. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. -T.: Fan, 1960. - 223 b.
4. B. Jumanov. O'zbek adabiyotida Sobir Sayqaliy asarlarinig irfoniy tadqiqi. maqola. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2024
5. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. - T.: Sharq, 1998. B.14.
6. A. Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Universitetlar va pedagogika institutlari filologiya, jurnalistika fakulteti talabalari uchun darslik. -T.: G'afur G'ulom, 2017
7. H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b
8. M. Mamatqulov. Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonida tashbih san'ati

INNOVATIVE
ACADEMY